

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MUVAFFAQIYATGA ERISHISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH.

Pedagogika fanlar doktori, professor

Ulfatjon Mahkamov

USAT «Pedagogika» fakulteti 1-bosqich  
talabasi Muxammadaliyeva Nodirabegim

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muvaffaqiyatga erishish ko‘nikmalarini shakllantirishning ayrim jihatlari ilmiy pedagogik jihatdan asoslangan.

**Tayanch so‘zlar:** tarbiya, mehr-oqibat, o‘qituvchi, ta’lim, bilim, matonatli, odam, jamiyat, xarakter, rivojlanish, muvaffaqiyat.

Muvaffaqiyat nima? Unga qanday erishiladi? Ushbu savollar har bir insonda rivojlanish bosqichlaridan o‘tayotgan vaqtida paydo bo‘ladi.

Muvaffaqiyat so‘zini tez-tez eshitamiz. Asosan barcha istagan narsaga erishish bu-muvaffaqiyat. Uning yagona o‘lchovi va hayotda qanday muvaffaqiyatli bo‘lish mumkin? degan savolga birgina aniq javob mavjud emas. “Eng muhimi muvaffaqiyatga erishish uchun nimadir qilish va bunga hoziroq kirishish muhim. Muvaffaqiyat oddiy bo‘lishiga qaramasdan, uning eng asosiy sirsanoati shundaki, ajoyib-g‘aroyib g‘oyalarni hayotga tatbiq etish, ayniqsa, ayni damda ishga kirishish va muvaffaqiyatga erishish uchun, ilk qadamni bosish va o‘ylash, fikrlash, orzu qilish va harakat qilish orqali maqsadga yetish imkoniyatiga ega bo‘lish nazarda tutiladi. O‘quvchi muvaffaqiyatga erishishi uchun harakatdan to‘xtamasligi kerak. Ushbu jarayonda o‘qituvchi bolalarga birdaniga tog‘ning uchiga chiqib bo‘lmasligini, yiqilishlar, noto‘g‘ri yo‘llar va istiroblar, katta qiyinchiliklar va xatolarsiz bo‘lmasligini tushuntirishi muhim hisoblanadi. Har bir o‘quvchi muvaffaqiyatga qanday erishish mumkinligini o‘yaydi. Maktab o‘qituvchilari o‘quvchini kelajakda ishchi, shifokor, yoki huquqshunos o‘z ishini ustasi bo‘lishiga o‘rgatadi. Ushbu jarayonda o‘qituvchi yetuk insonlarning hayoti va faoliyatini o‘quvchilarga tushuntirishi, ularni mashhur ishbilarmon va dunyonи o‘zgartirishga qodir bo‘lishiga ishonch hosil qildiradi. Ba’zi birlar ko‘p mehnat qilishiga qaramay, bir nuqtadan siljiy olmay qolishi mumkin. Buning sababi ba’zi bir o‘quvchilarning kuni tartibsiz o‘tishi yoki vaqtini noto‘g‘ri taqsimlanganidandir. Ba’zi bir bolalar ba’zida tartibsiz kunlik rejalar ortidan hech narsaga ulgurmay qoladilar. O‘quvchi maktabda o‘qib yurgan paytlarida o‘qituvchi uning har tongda dars boshlanishidan “Bugungi kunimni qanday o‘tkazaman” sarlavhasi ostida reja tuzdirishi va dars boshlangunga qadar yig‘ib olishi orqali ularning diqqatlari jamlanadi va kun uchun o‘z maqsad va vazifalarini to‘g‘ri taqsimlab oladilar. Bu esa, muvaffaqiyatga erishishning asosiy ustuni bugungi kun uchun ish reja tuzib olish imkoniyatini yaratadi.

Shuning uchun ham bolalarning kelajagi uchun sarmoya kiritishdan qochmaslik, butun e’tiborni o‘qishga qaratish, shaxsiy hayotni unutmaslik muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonda ota-onani farzandlariga hayot tarzi haqidagi bilimlarini shakllantirishlari, ular bilan shug‘ullanishlari o‘z samarasini ko‘rsatadi.

Buning uchun o‘qituvchi bor mas’uliyatni ota-onaga tashlab qo‘ymasdan bola bilan birma bir shug‘ullanishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilar bilan hamkorlik qila olishida, ularning rivojlanishida uning pedagogik metodlari muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi kelajakda ana shunday ustoz bo‘lish uchun o‘quvchilarda harakat qilish, ularni qiziqadigan soha bo‘yicha to‘g‘ri yo‘naltirish, ko‘plab vaqtlarini kitob o‘qishga sarflashlariga e’tibor qaratish ularning hayotini mazmunini takomillashtirishda yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishlarida muhim hisoblanadi. Ayniqsa kitob mutolaasi va fikr yuritish, to‘g‘ri qarorlar muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur bo‘lgan bilimlar bilan ta’minlaydi. Mana shundan kelib chiqadiki, kitob mutolaasi muvaffaqiyatning bir qismi sifatida yutuqlarga erishish, insonlar hayotidan ruhlanish uchun imkon yaratib beradi.

Bugungi kunda barcha maktablarda axborot resurs markazlari yetarlicha zamonaviy texnikalar bilan jihozlangan. O‘quvchilarga ulardan to‘g‘ri foydalanishni, bularning qanday yaratilganini o‘rgatish, oz bo‘lsa ham o‘qishga va zamonaviy texnologiyalar yaratishga qiziqtirish muhim o‘rin tutadi.

Hozirgi kunda barcha bolalarda kompyuterga qiziqish ommalashgan jarayon hisoblanadi. Buning uchun u bolalarni yoshligidanoq kompyuterga qiziqtirish, “Bu qanday yasalgan?”, “Qanday ishlaydi?” kabi savollarga javob berish kabilar Bill Geyts faoliyatiga bog‘liq. chunki u yiliga 50 ta kitob o‘qishini, jahon bo‘ylab sayohat qilishni, qiziqarli insonlar bilan uchrashishni, yangi narsalarni o‘rganishni va o‘z nigohini kengaytirishni asosiy vosita sifatida o‘z so‘zları bilan ta’kidlab o‘tgan. U har gal safarga chiqqanida o‘zi bilan kitob olishini odat qilgan. Demak bolalar ham shunday qilishsa har bir daqiqalaridan nimanidir o‘rganish uchun sarflashga odatlanish muhim. Mana shu sababdan ham Bill Geyts butun jahonga mashhur shaxs bo‘lib yetishgan.

Ilon Mask-bugungi kunda eng ommalashib borayotgan elektromobilarning asoschisi hamda dunyoga mashhur bo‘lgan “Yesla” kompaniyasi rahbari ushbu ishbilarmon, ixtirochining hayot yo‘liga har bir mashina yoki texnologiya, yangiliklarga intiluvchi bolalar doimo o‘z qiziqishlarini bildiradilar. Mask o‘zi mustaqil ravishda racketalar yashashni o‘rganishga qaror qilgan. Buning uchun, albatta, ko‘p kitob o‘qish kerak. U muayyan maqsadga yetishishga intilib, mu‘ayyan bilimlar olishning uddasidan chiqqan va o‘zi istagan narsaga erishmaguncha to‘xtamagan. “Shunday ekan bolajonlar ham qachondir bu insondan buyukroq bo‘lishlari mumkin ular yaratgan mashinalardan zo‘rlarini ham yaratishingiz mumkin” deb ularni ruhlantirish muhim hisoblanadi.

Demak dunyo tanigan insonlarning muvaffaqiyatga erishishlari uchun faoliyati, hayoti haqida bolalarga ma'lumot berish ularni muvaffaqiyatsizlikka uchramaslik uchun maqsadlar aniq va shaxs imkoniyatlari darajasini yaratadi. Buning uchun har qanday ishda mas’uliyat va mas’ullik bo‘lishi, ijobjiy fikrli kishilar yonida bo‘lisha intilishi muhim o‘rin tutadi. Chunki bunday kishilar bolalarga yordam berishdan qo‘rmaydi.

Demak boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muvaffaqiyatga erishish ko‘nikmasini shakllantirish haqida o‘qituvchi chuqurroq o‘ylashi qo‘rquv, ikkilanish va xavotirdan qo‘rmasligi kabilar muvaffaqiyat omillari hisoblanadi. Chunki qo‘rquvni yenga olgan, o‘z kuchiga ishongan ikkilanmagan kishini g‘alaba

kutadi. Demak bolalarni muvaffaqiyatga erishishlari uchun “Buni qanday qilsam ekan?” “Nima qilsam qo‘limdan keladi?” degan fikrlarga javob topish ular tafakkurini rivojlantiradi. “Bu mening qo‘limdan kelmaydi” deyilsa inson tafakkuri yopiladi va shunday qoladi. Muvaffaqiyatsizlik aslida nasldan-naslga o‘tadi. Chunki biz bolalarga o‘zimizdan borinigina o‘rgatamiz. Fikrimizni o‘zgartirmas ekanmiz bizga muvaffaqiyatga erishish uchun hech narsa yordam bermaydi. Avvalambor, fikrlarni to‘g‘ri yo‘naltirishni o‘rganaylik. Bolalarga ham shuni o‘rgataylik. Biror ish qilishni xohlashganda ularga “Bu seni qo‘lingdan kelmaydi”, “Bu ish qiyin” deyish o‘rniga ularni qo‘llab-quvvatlaylik. Mayli, shu ish ularning qo‘lidan kelmasin, muvaffaqiyatsizlikka uchrashsin lekin umidsizlikka tushib, umidlaridan vos kechib to‘xtab qolishmasin. Axir har bir muvaffaqiyat ortida minglab muvaffaqiyatsizliklar turadi. Ularni ruhlantiraylik, bugun qila olishmadimi ertaga uddalashlarini aytaylik. Nima uchun bolalarda muvaffaqiyatga erishish shakllanmaydi buni sababini bilasizmi? Chunki bolalarni biz shu ahvolga solamiz. Maktabda ular qilgan xatolari uchun ularni jazolaymiz va ular xato qilishdan qo‘rqa boshlashadi. Shu sababdan biror ishga qo‘l urushdan oldin ular ko‘p to‘xtashadi, o‘ylashadi, qo‘llaridan kelmasligiga ishonishadi va xatto muvaffaqiyatga erishish mumkin bo‘lgan ishdan ham vos kechishadi. Mana asl sabab nimada-qo‘rquvda. Bolalarda ishonchni, muvaffaqiyatli inson kabi fikrlashni shakllantirish kerak. Hozirgi kunda bolalarda intilish, qiziqish kabi funktsiyalarini rivojlantirish uchun Finlandiya ta‘lim tizimidagi ba’zi islohotlarni o‘z ta‘lim doiramizga tadbiq etmoqdamiz. Qalam tizimi ham mana shular jumlasidandir. Finlandiyada bolalar 3-sinfgacha baholanmaydilar. Sababi yomon baho bola ongiga salbiy ta’sir o‘tkazadi. Ularni baholamaslik, buning o‘rniga esa, ularni rag‘batlantirish ancha samarali usul deya qo‘llaniladi. Biz ham shu metodni boshlang‘ich sinf bolalariga qo‘llasak, bolalar ongida rivojlanish hissiga ancha ijobiy ta’sir o‘tkazgan bo‘lamiz. Bolalarni rag‘batlantirish bu eng yaxshi metoddir. Chunki unda qiziqish va yanada intilish kabi ko‘nikmalar paydo bo‘ladi.

Janob Lipton aytganidek “Muvaffaqiyatsizlik nasldan-naslga o‘tadi” afsus bu fikr har qanday zamon har qanday davrda o‘z tasdiqini topib kelgan. Bu ayanchli narsa. Agar siz buni o‘rganishni xohlamasangiz, men sizga yordam bera olmayman. Men ham chorasisz edim, inqirozlarga chidadim, yiqilishlardan qayta turdim, men o‘zimni tez o‘ngladim. Menda boshqa fikr bor xato qilishdan qo‘rqadigan odamlar hech qachon o‘smaydi. Bunga sabab, dunyo haqida noto‘g‘ri tushuncha. Tushuncha yaxshi ham, yomon ham bo‘la oladi, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qaror kabi, u ham parvoz, ham qulash holatlariga uchraydi. Ko‘p odamlar esa faqat to‘g‘risini qilishni xohlaydi. Ular xato qilishni xohlashmaydi, ular har doim ishonchi komil bo‘lishini istaydi va bu muvaffaqiyatsiz insonlar muvaffaqiyatsiz bo‘lishlarining sababi, ular xato qilishmagan. Ular juda ehtiyyotkor yashashadi va adashmaslikka intilishadi. Eng oddiy misol maktabda 5 bahoga o‘qigan bola “Men a‘lochiman, bu mening uchun oson” deb o‘ylaydi, katta hayotga qadam qo‘yganda esa, oyog‘idan chalinadi va u “Bu adolatdan emas, hayot aldamchi” deb tushkunlikka tushadi. Lekin bilasizmi ular bunga tayyor emasdi biz ularga noto‘g‘ri o‘rgatayabmiz. Odamlar men hech qachon muvaffaqiyatga erisha olmayman desa erisha olishmaydi. Gaplari haqiqatga aylanadi va meni eng hayron

qoldiradigani bularning asosiy sababi ularning fikrida ekanligi. Enshteyn aytganidek “Tassavur bilimdan kuchliroq. Siz bilimda cheklangansiz, tasavvurda esa yo‘q”. Lekin bilim sizning tassavurlaringizni kengaytiradi. Aksariyat, odamlarga yetmayotgan asosiy narsa taffakurni to‘g‘ri shakllantirish. Mana shu orqali ularni muvaffaqiyatga erisha olishi mumkin. Bularni hamma bilishi kerak. Afsuski, mакtabda ushbu jarayonlarga o‘rgatilmaydi. Maktabdagи o‘qituvchilarning aksariyati o‘z kasbining mutaxassisи emas. Ular amalda o‘zlari sinab ko‘rmagan yo‘llarni o‘rgatishadi. Men ularni soxta o‘qituvchilar deb atayman, bu o‘qituvchi shunchaki pul uchun ishlayotgan odam. Ular bolalarni qanday qulay bo‘lsa shunday o‘qitishadi. Ular aslida sizda nimani shakllantirayotganini o‘zlari bilmaydi. Men sizlarga maslahat beradigan eng asosiy narsalardan biri bu haqiqiy o‘qituvchi bo‘lish, soxta emas, soxta o‘qituvchi o‘zi o‘rgatayotgan narsani o‘zi qilmaydi, haqiqiysi esa uni har kun bajaradi. Shu sababdan ham o‘quvchilarga muvaffaqiyatga erishishni o‘rgatish muhim hisoblanadi. Maktab o‘qituvchilari o‘zlarining tamoyillariga zid narsani muhokama qilib o‘tirmaydi va maktab doirasidan chiqmaslikka harakat qiladi. Biz o‘z odatlarimizga asr bo‘lganmiz va toki biz bu odatlardan qutilmas ekanmiz o‘zgara olmaymiz. Bizning maktablarda buni o‘rgatishmaydi. Ularda buning butunlay aksini o‘rgatishadi. Men sizlarga, har doim o‘zingiz yoqtirgan ishni topishingizni va o‘zingiz sevgan mashg‘ulot bilan shug‘ullanishingizni maslahat beraman. O‘zingiz o‘qitayotgan o‘quvchilarni muvaffaqiyatli bo‘lishini xohlaysizmi o‘zingiz ham shunga erishing, ularga o‘rnak bo‘ling. Men sizga davom etishingizni nima qilayotgan bo‘lsangiz shuni qilishingizni, shunchaki hayotingizdan zavqlanishni tavsiya qilaman. Insonlar o‘zlari xohlagan ishni qilgandagina muvaffaqiyatga erishishadi. O‘zingiz uchun eng to‘g‘ri qarorni qabul qiling va hech ikkilanmay ana shu qaror asosida yashang. Siz hayotingizni ota-onangiz, do‘srlaringiz fikriga qarab belgilamang. Siz muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqqaningiz uchun qarorlarni ularning xukmiga topshirib qo‘yishingiz mumkin, lekin, aynan mana shu xatolar sizni muvaffaqiyatga yetaklaydi. Agar siz muvaffaqiyatga erishishni xohlasangiz, muvaffaqiyatga erishgan insondan taqsil oling va erishganlaringizga boshqalar ham erishishi uchun yordam bering. Muvaffaqiyat-xohishlar va orzular ko‘lamidan kuch oladi. Unutmang katta muvaffaqiyat bu ulkan tajriba, ulkan tajriba esa minglab xatolardir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

- 1.”Mishel Monten.Hikmatlar” kitobi 1588-yil
- 2.<https://www.weforum.org> saytining “World Yeconomic Forum” nomli maqolasi.
- 3.”Bill Gates| Biography, Microsoft, & Facts” [www.britannic.com](http://www.britannic.com)
- 4.<https://www.terabayt.uz> > post > yelo; Yelon Mask muvaffaqiyat tamoyillari:;
- 5.”O‘qituvchi”; Finlandiya>Ta‘lim>Tizimi>
- 6.<https://en.m.wikipedia.org> > wiki>